

BOSHLANG'ICH TA'LIMDA 5E MODEL ASOSIDA AMALIY MASHG'ULOTLARNI REJALASHTIRISH

Raximqulova Maxbuba Baxronovna
Samarqand viloyati pedagogik mahorat markazi
Maktabgacha, boshlang'ich va maxsus ta'lim
metodikalari kafedrasi mudiri, dotsent
rahimkulovam438@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda amaliy mashg'ulotlarni 5E modeli asosida kompetensiyaviy yondashuv bilan rejalashtirish muammosi haqida fikr-mulohazalar berilgan. Maqsad 5E bosqichlarining kompetensiya natijalari bilan moslashuv mexanizmini asoslashdir. Natijada rejalashtirishning amaliy algoritmi va baholash mezonlari taklif etildi.

Kalit so'zlar: 5E modeli, kompetensiyaviy yondashuv, amaliy mashg'ulot, boshlang'ich ta'lim, rejalashtirish, baholash, o'quv natijalari.

ПЛАНИРОВАНИЕ ПРАКТИЧЕСКИХ ЗАНЯТИЙ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ 5Е В НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация. В этой статье представлены размышления о проблеме планирования практических занятий в начальном образовании на основе модели 5Е с компетентностным подходом. Цель заключается в обосновании механизма соответствия этапов 5Е результатам освоения компетенций. В результате предложены практический алгоритм планирования и критерии оценки.

Ключевые слова: модель 5Е, компетентностный подход, практическое занятие, начальная школа, планирование, оценивание, образовательные результаты.

PLANNING PRACTICAL LESSONS IN PRIMARY EDUCATION BASED ON THE 5E MODEL

Annotation. This article presents reflections on the issue of planning practical lessons in primary education based on the 5E model using a competency-based

approach. The aim is to substantiate the mechanism for aligning the stages of the 5E model with competency outcomes. As a result, a practical planning algorithm and assessment criteria are proposed.

Key world: 5E model, competency-based approach, practical activity, primary education, instructional planning, assessment, learning outcomes

KIRISH. Boshlang'ich ta'lim amaliyoti so'nggi yillarda o'quv natijalarini faqat bilim hajmi bilan emas, balki o'quvchining real vaziyatlarda qo'llay oladigan ko'nikma va malakalari, ya'ni kompetensiyalari bilan ifodalashga tobora ko'proq e'tibor berilmoqda. Bunday faoliyat o'qituvchidan darsni "mavzu bayoni" sifatida emas, balki o'quvchi faoliyati, mustaqil fikrlashi, muammoli vaziyatni hal etishi va natijani asoslab bera olishi bilan yakunlanadigan o'quv tajribasi sifatida loyihalashni talab qiladi. Ayniqsa amaliy mashg'ulotlar kompetensiyalarning shakllanishi uchun asosiy maydondir, chunki aynan amaliy vazifalarda o'quvchi bilishni bajarishga aylantiradi va o'z xatolarini ko'ra boshlaydi. Shunga qaramay, boshlang'ich sinflarda amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirish ko'pincha topshiriqlar tuzish, ish varaqalari tayyorlash yoki ko'rgazmali materiallar tanlash bilan cheklanib qoladi, natijada maqsad, jarayon va baholash bir-biriga bog'lanmaydi va amaliy faoliyatning didaktik qiymati pasayadi.

Ilmiy adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuv o'quv natijalarini faoliyatga yo'naltirilgan tarzda ifodalash va baholashni talab qilishi, bunda o'qituvchi rejalashtirish jarayonida "nima o'rgatiladi"dan ko'ra "o'quvchi nima qila oladi" savolini markazga qo'yishi ta'kidlanadi. Biroq rejalashtirishning amaliy mexanizmlari, xususan boshlang'ich ta'lim sharoitida amaliy mashg'ulotlarni qanday ketma-ketlikda loyihalash, qaysi bosqichda qaysi kompetensiya ko'rsatkichi kuzatilishi, baholash dalillari qayerda to'planishi masalalari yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Shu bois, 5E modeli o'qitish jarayonini mantiqiy bosqichlarga ajratib, o'quvchi faoliyatining ketma-ket rivojlanishini ta'minlash imkonini beradi. 5E modeli odatda jalb etish, tadqiq etish, tushuntirish, rivojlantirish va baholash bosqichlarini o'z ichiga oladi hamda konstruktivistik qarashlar bilan uyg'unligi

sababli o'quvchining faol bilim qurishini qo'llab-quvvatlaydi. Lekin 5E modelidan foydalanish ham o'z-o'zidan kompetensiyaviy natijani kafolatlamaydi. Agar har bir bosqichning vazifasi kompetensiya indikatorlari bilan oldindan "bog'lanmasa", model faqat metodik "shakl" bo'lib qoladi.

Shu sababli ushbu maqolada muammo sifatida boshlang'ich ta'limda 5E modeli asosida amaliy mashg'ulotlarni rejalashtirishning konseptual va metodik asoslarini aniqlash tanlandi. Maqola muammosi shundaki, mavjud ishlar 5E modelining umumiy afzalliklarini tavsiflaydi yoki kompetensiyaviy yondashuvni normativ darajada sharhlaydi, biroq amaliy mashg'ulotni rejalashtirishda 5E bosqichlari bo'yicha natijalarini aniq ko'rsatkichlarga ajratish va baholash dalillarini rejalashtirish bo'yicha integrallashgan yechimni kam taklif etadi [3;4].

Maqolaning maqsadi boshlang'ich ta'lim amaliy mashg'ulotlarini 5E modeli asosida rejalashtirishning nazariy asoslangan mexanizmini ishlab chiqish va o'tkazilgan darslardagi tahlili asosida uning samarali bosqichlarini aniqlashdan iborat. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi: birinchidan, rejalashtirishda amaliy mashg'ulotning didaktik birlik sifatidagi belgilari aniqlashtirildi; ikkinchidan, 5E bosqichlarining har biri uchun kompetensiya indikatorlari va baholash dalillarini moslashtirish tamoyillari ishlab chiqildi; uchinchidan, darslar asosida taklif etilgan yondashuvning kuzatiladigan natijalari tizimlashtirildi.

Metodologik tahlil. Nazariy qism sifatida kompetensiyaviy yondashuvning o'quv natijalarini faoliyatga yo'naltirib ifodalash haqidagi qoidalari hamda konstruktivistik o'qitish modellari, jumladan 5E bosqichlarining o'quvchida aniq tushuncha shakllanishiga xizmat qilishi haqidagi qarashlar qabul qilindi.

Kontent-tahlil doirasida boshlang'ich ta'lim didaktikasi va kompetensiyaviy yondashuv bo'yicha ilmiy manbalarda amaliy mashg'ulotning funksiyasi, o'quv faoliyatini bosqichma-bosqich qurish, formatif baholash dalillarini yig'ish kabi tushunchalar ajratib olindi va ularning o'zaro bog'liqligi aniqlashtirildi [1;2]. Taqqoslama tahlil 5E modelining bosqichlari bilan kompetensiya komponentlari

o'rtasidagi moslikni asoslash uchun qo'llanildi: bunda kompetensiya "bilim"ning o'zi emas, balki vazifani bajarish jarayonidagi amallar, muloqot, refleksiya va natijani asoslash kabi ko'rsatkichlar orqali tashkillashtirildi [4]. Shuningdek, pedagogik o'lchovlarning ishonchliligini oshirish maqsadida formatif baholash konsepsiyasiga tayanilib, baholash dalillari sifatida o'quvchining mahsuloti, jarayon davomida aytilgan izohlar, guruhdagi rollar taqsimoti, xatoni tuzatish strategiyalari kabi ko'rinishlar rejalashtirish tarkibiga kiritildi.

Empirik qism sifatida dizayn-tadqiqotning kichik ko'lamli sinov bosqichi amalga oshirildi: 5E modeli asosida rejalashtirilgan amaliy mashg'ulot senariylari ishlab chiqildi, ularda maqsad kompetensiya natijalari sifatida ifodalandi, har bir bosqich uchun o'qituvchi harakati, o'quvchi faoliyati, resurs va baholash dalillari oldindan belgilandi. Tajriba darslari bo'yicha ma'lumotlar kuzatuv qaydlari va o'quvchi ishlarining sifat tahlili orqali umumlashtirildi. Mazkur metodlar tanlovi tadqiqot maqsadiga mos bo'lib, ular bir tomondan konseptual modelni asoslashga, ikkinchi tomondan rejalashtirish yechimining amaliy ishlash shartlarini aniqlashga xizmat qildi.

Natija. Tadqiqotning birinchi natijasi amaliy mashg'ulotning rejalashtirishdagi didaktik maqomini aniqlashtirish bilan bog'liq bo'ldi. Kontent-tahlil shuni ko'rsatdiki, boshlang'ich ta'limda "amaliy mashg'ulot"ni faqat qo'l mehnati yoki tajriba ko'rinishida tashkil etish rejalashtirishni susaytiradi. Aslida esa u o'quvchining predmet mazmunini muammoli vazifa orqali o'zlashtirishi, jarayonni boshqarishi va natijani asoslab berishini talab qiladigan faoliyat birligidir. Demak, rejalashtirish markazida topshiriqning o'zi emas, topshiriqni bajarish jarayonida namoyon bo'ladigan kompetensiya ko'rsatkichlari turishi zarur. Shu asosda amaliy mashg'ulot "vazifa, jarayon, mahsulot va refleksiya" ketma-ketligida ko'rilganda natijalarni kuzatish uchun tabiiy imkoniyat paydo bo'lishi aniqlandi.

Ikkinchi natija 5E bosqichlari va kompetensiya indikatorlari o'rtasidagi moslashtirish mexanizmini ishlab chiqishdan iborat bo'ldi. Jalb etish bosqichida rejalashtirish o'quvchining avvalgi tajribasini faollashtirish va muammoni qabul

qilishini ko'zda tutadi, bu yerda indikator sifatida savol qo'yish, taxmin bildirish, vazifani shaxsiy ma'noda qabul qilish kabi harakatlar rejalashtiriladi. Tadqiq etish bosqichida indikatorlar jarayoniy xarakterga ega bo'lib, o'quvchining kuzatish, taqqoslash, oddiy dalil yig'ish, hamkorlikda qaror qabul qilish kabi amallari baholash dalili sifatida ko'zda tutiladi. Tushuntirish bosqichida kompetensiya natijalari tushuncha va amaliy tajriba o'rtasidagi bog'lanishni og'zaki va yozma shaklda izohlash, atamalarni o'rinli qo'llash, mantiqiy asos keltirish orqali boshqariladi. Rivojlantirish bosqichida indikatorlar moslashuvga yo'naltiriladi, ya'ni o'quvchi o'rgangan usulni yangi vaziyatga ko'chira olishi, murakkabroq shartda strategiyasini tanlashi va xatolarini tuzatishi kutiladi. Baholash bosqichi esa faqat yakuniy natijani tekshirish sifatida emas, balki butun davr davomida yig'ilgan dalillarni tizimlashtirib, o'quvchining o'sish nuqtalarini ko'rsatish, o'zini baholash va o'zaro baholashni mantiqan asoslashni ham qamrab olishi lozimligi bilan izohlandi. Shu tariqa 5E modeli rejalashtirishda "bosqich vazifasi" va "indikator dalili"ning uzviy juftligi sifatida qayta talqin qilindi.

Uchinchi natija rejalashtirishning amaliy algoritmini konseptual darajada taklif etish bilan bog'liq bo'ldi. Taklif etilgan yondashuvda o'qituvchi birinchi navbatda kompetensiyaviy natijani ikki qismda ifodalaydi: bajariladigan faoliyat turi va sifat mezonini. Shundan so'ng 5E bosqichlari bo'yicha o'quvchi faoliyati ketma-ketligi rejalashtiriladi, har bir bosqichda o'quvchining kuzatiladigan harakati va dalil manbai oldindan belgilanadi. Muhim jihati shundaki, ta'lim vositalarini tanlash ham kompetensiyaga xizmat qilishi kerak. Masalan, faqat ko'rgazmali qulaylik uchun emas, balki o'quvchining tekshirish, solishtirish yoki tushuntirish harakatini qo'zg'atadigan materiallar tanlanadi.

O'quv jarayoni materiallari tahlili to'rtinchi natija sifatida rejalashtirishning kuzatiladigan pedagogik effektlarini tizimlashtirish imkonini berdi. Birinchidan, jalb etish va tadqiq etish bosqichlari aniq indikatorlar bilan rejalashtirilganda o'quvchilarning passiv tinglovchi bo'lib qolishi kamayib, savol berish va taxmin bildirish faolligi barqarorlashgani qayd etildi. Ikkinchidan, tushuntirish bosqichida

o'qituvchi tomonidan "dalilga tayangan izoh" talabi aniq qo'yilganda, o'quvchilar javoblari ko'proq asoslangan, sabab-oqibat bog'lanishlari bilan boyitiladi. Uchinchidan, rivojlantirish bosqichida yo'naltirilgan vazifalar kiritilganda, ayrim o'quvchilar oldingi usulni yangi sharoitga moslashtirishda qiynalishi kuzatildi, biroq aynan shu qiyinchilik kompetensiyaning real darajasini ko'rsatadigan diagnostik dalil vazifasini bajardi. To'rtinchidan, baholash bosqichida o'z-o'zini baholash mezonlari oldindan e'lon qilinganda, o'quvchi refleksiyasi "yoqdi-yoqmadi" darajasidan ko'ra "qaysi usul ishladi, qayerda xato qildim, qanday tuzatdim" kabi mazmunli tahlilga yaqinlashadi. Bu natijalar 5E modeli rejalashtirishda faqat metodik ketma-ketlik emas, balki baholash dalillarini ishlab chiqaruvchi model bo'lishi mumkinligini ko'rsatdi.

Olingan natijalar kompetensiyaviy yondashuvning asosiy talablaridan biri bo'lgan natijani ifodalash va baholash dalillarini oldindan rejalashtirish masalasini 5E modeli bilan integratsiyada yechish mumkinligini ko'rsatadi. Xususan, rejalashtirishni "kompetensiya indikatorlari va dalillari" atrofida qurish g'oyasi kompetensiyaviy ta'limda maqsad-baholash uyg'unligiga urg'u beradigan yondashuvlar bilan mos keladi. Biroq ushbu maqolada taklif etilgan mexanizmning yangiligi shundaki, u indikatorlarni mavzuga qo'shimcha "talab" sifatida emas, balki 5E bosqichlarining didaktik vazifasidan kelib chiqadigan tabiiy natija sifatida belgilaydi.

5E modelining konstruktivistik mohiyati ilmiy manbalarda o'quvchining faol bilim qurishi, muammoli vaziyatda tajriba va izohlar orqali tushuncha shakllanishi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari aynan shu fikrni boshlang'ich ta'lim amaliy mashg'ulotlari misolida keltiradi. 5E bosqichlariga kompetensiya indikatorlari birlashtirilganda konstruktivistik davr baholash bilan "yopiq" bo'lib qolmaydi, balki har bir bosqich baholash dalilini ishlab chiqaradigan ochiq tizimga aylanadi. Bu jihat formatif baholash konsepsiyasida ilgari surilgan "baholash o'qitishning ichida bo'lishi" talabi bilan hamohangdir. Shu bilan birga, natijalar baholashni faqat yakuniy nazorat ishlari bilan emas, balki o'quvchi strategiyalarini kuzatish va

refleksiyani yo'lga qo'yish bilan bog'lash zarurligini ko'rsatadi, chunki darslarida mezonlar oldindan aniqlanganda o'quvchi refleksiyasi sifat jihatdan o'zgarishi mumkin.

O'zbekiston ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni amaliyotga tatbiq etish masalalarida ko'pincha kompetensiyalarni umumiy ta'riflash va o'quv dasturidagi natijalar bilan moslashtirish masalasi ko'proq yoritiladi [4]. Ushbu maqola esa shu yo'nalishni mikro darajaga, ya'ni amaliy mashg'ulotning natijasini 5E bosqichlari bo'yicha kuzatiladigan dalillarga ajratish orqali rejalashtirishni "ishlaydigan" holatga keltirishni taklif qiladi. Bu yondashuvning kuchli tomoni shundaki, u o'qituvchini ko'p hujjat bilan yuklamasdan, darsning o'zini diagnostik tizimga aylantiradi, zaif tomoni esa manba va vaqt yetishmasligi, ayniqsa sinfda o'quvchilar soni ko'p bo'lganda qiyinlashishi mumkinligidir. Shuning uchun natijalar amaliyotga tatbiq qilinishida baholash dalillarini "tanlab olish", ya'ni har bosqichda hamma narsani emas, aynan kompetensiyaning asosiy indikatorlarini kuzatish va ehtoyoj aniqlanishi muhimligini ko'rsatadi.

Shuningdek, darslarda ayrim vazifalar o'quvchilar uchun qiyinchilik tug'dirgani haqidagi natija kompetensiyaviy yondashuvning mohiyatini yana bir bor tasdiqlaydi. Kompetensiya aynan yangi vaziyatda namoyon bo'ladi, shuning uchun rivojlantirish bosqichini soddalashtirib yuborish kompetensiyani "ko'rinmas" qiladi. Bizning natijalar bu fikrni boshlang'ich ta'lim sharoitida rejalashtirish mezoni sifatida aniqlashtiradi. Agar rivojlantirish bosqichida vazifa faqat takror mashq bo'lsa, baholash dalillari asosan muhim bo'lib qoladi. Agar vazifa o'zgaruvchan bo'lsa, kompetensiya indikatorlari yanada aniqroq ko'rinadi.

Xulosa. Maqolada boshlang'ich ta'limda amaliy mashg'ulotlarni 5E modeli asosida rejalashtirishning konseptual va metodik yechimi asoslandi. Amaliy mashg'ulot kompetensiyani yuzaga chiqaradigan faoliyat birligi sifatida talqin qilinib, 5E bosqichlari bo'yicha kompetensiya indikatorlari va baholash dalillarini moslashtirish mexanizmi ishlab chiqildi. Taklif etilgan yondashuv rejalashtirishni maqsad, jarayon va baholash uyg'unligiga olib keladi, formatif baholashni darsning

ichki qismiga aylantiradi hamda o'quvchi refleksiyasini mazmunan kuchaytiradi. Amaliy jihatdan bu yondashuv o'qituvchiga har bir bosqichda kuzatiladigan natijani oldindan belgilash, resurslarni kompetensiyaga xizmat qildirish va transfer vazifalari orqali haqiqiy o'zlashtirishni aniqlash imkonini beradi. Kelgusida tadqiqotlar turli fanlar kesimida 5E asosidagi rejalashtirishning barqarorligini tekshirish, sinf hajmi va individual farqlar sharoitida baholash dalillarini yig'ishning maqbul strategiyalarini ishlab chiqish hamda raqamli vositalar yordamida formatif baholashni soddalashtirish yo'nalishlarida davom ettirilishi maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Давыдов В.В. Теория развивающего обучения / В. В. Давыдов; Рос. акад. образования, Психол. ин-т, Междунар. ассоц. «Развивающее обучение». - Москва : ОПЦ "ИНТОР", 1996. -541-стр
2. Эльконин Д.Б. Психология обучения младшего школьника. Д.Б.Эльконин, чл.-кор. АПН СССР. -Москва : Знание, 1974. -63 стр.
3. Ishmuhamedov R., Yuldashev J. Pedagogik texnologiyalar: nazariya va amaliyot. Toshkent, Iqtisod-Moliya, 2016. 256 b.
4. Xodjayev B. Boshlang'ich ta'limda o'quv natijalarini baholash va kompetensiyalarni shakllantirish. Toshkent, O'qituvchi, 2020. 208 b.
5. Rychen D. S., Salganik L. H. Key competencies for a successful life and a well-functioning society. Göttingen, Hogrefe and Huber, 2003. 206 p.